

DOLZARB MAVZU

Boltayev Bobir Baxtiyorovich

Buxoro davlat universiteti
arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası dotsenti,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

PREZIDENT MUROJAATNOMASINING O'ZBEKISTON XALQI FAROVON HAYOTINI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI

So'nggi yillarda O'zbekistonda strategik boshqaruv amaliyotida davlat rahbari Murojaatnomasi "yillik siyosiy-dasturiy hujjat" sifatida muhim o'rin egallab, unda nafaqat umumiy yo'nalishlar, balki aniq raqamlar, muddatlar, institutsional mexanizmlar va moliyalashtirish manbalari ham bayon qilinmoqda. 2025-yil 26-dekabrdagi Murojaatnoma ham shu xususiyati bilan ajralib turadi: unda 2025-yil natijalari (YAIM, eksport, zaxiralar, investitsiyalar, kambag'allik va bandlik ko'rsatkichlari) qayd etilib, keyingi yil uchun 6 ta ustuvor yo'nalish bo'yicha aniq vazifalar ilgari suriladi [4].

Murojaatnomada 2026-yil "barcha sohalarini rivojlantirishda tub burilish yili" sifatida ta'riflanadi va bu tub burilishning bosh g'oyasi mahalla darajasidagi natijadorlikni kuchaytirish, texnologik modernizatsiyani jadallashtirish, inson kapitalini bozor talabiga mos tayyorlash, "yashil" kun tartibini chuqurlashtirish hamda davlat boshqaruvi va sud-huquq tizimida raqamli va adolatli mexanizmlarni kengaytirishdan iboratligi ta'kidlab o'tildi. Ushbu tarixiy hujjatda mamlakatni barqaror rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirish va islohotlarning samaradorligini kuchaytirishga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilab berildi. Davlat rahbari mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi inson qadrini ulug'lash ekanini ta'kidlab, mahalla institutini jamiyatning eng muhim bo'g'ini sifatida e'tirof etdi. Aynan mahallada yaratilgan qulay shart-sharoitlar orqali fuqarolar davlat siyosati va islohotlar natijasini bevosita his qila oladi. Mahalla infratuzilmasini rivojlantirish, aholini ish bilan ta'minlash va ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilab berildi. Shu bilan birga, Murojaatnomada mamlakat hayotining barcha sohalarini qamrab olgan keng ko'lamli tashabbuslar ilgari surildi va kelgusi yillarda amalga oshirilishi lozim bo'lgan muhim vazifalar belgilandi [1].

Xususan, global iqtisodiyot sharoitida raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun zamonaviy texnologiyalar, malakali kadrlar va ilmiy-innovatsion yondashuv hal qiluvchi ahamiyatga ega ekani alohida ta'kidlandi. Daromadli servis xizmatlarini kengaytirish, bioinjeneriya, ilg'or agrotexnologiyalar va suv tejovchi usullarni joriy etish, "yashil" energetika va chiqindisiz ishlab chiqarishga o'tish, ta'lim va tibbiyot sohalarida ilg'or xorijiy tajribalarni keng qo'llash orqali iqtisodiyotni jadal rivojlantirish mumkinligi ta'kidlandi. Bu orqali kelgusi besh yilda mamlakat iqtisodiyoti hajmini 240 milliard dollardan oshirish uchun barcha imkoniyatlar mavjudligi qayd etildi. 2026 yil esa yurtimizda "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" deb e'lon qilindi. Bu tashabbus mahalla infratuzilmasini yanada mustahkamlash, aholiga yaqqol ijtimoiy va iqtisodiy foyda olib keluvchi muhim qadam sifatida baholandi [3].

Davlatimiz rahbari Yangi O'zbekistonni barpo etishda hal qiluvchi bosqichga qadam qo'yilayotganini ta'kidlab, mamlakatning qaysi hududida yashashidan qat'i nazar, fuqarolar islohotlar samarasini kundalik hayotida his qilishi lozimligini alohida qayd etdi. Murojaatnoma doirasida deputatlarga o'z okruglaridagi muammolarni hal etish uchun 500 milliard so'm ajratilishi, "yashil hudud" va "yashil bog"lar tashkil etish bo'yicha har bir deputat tashabbusiga qo'shimcha ravishda 330 million so'mdan yo'naltirilishi belgilandi. Bu orqali 2030-yilga qadar

10 *sharoiti og'ir barcha tumanlardagi mahallalarda Yangi O'zbekiston qiyofasini yaratish maqsad qilingan[2].*

Shuningdek, sanoatda energiya tejamkor va yuqori texnologiyali tarmoqlarni rivojlantirish hisobidan bir dollar mahsulot uchun sarflanadigan yoqilg'i-energiya miqdori 13 foizga qisqartirilgani qayd etildi. Bu kelgusida barcha sohalarini texnologik va innovatsion o'sish modeliga o'tkazish iqtisodiy taraqqiyotning eng samarali yo'li ekanini ko'rsatadi.

Murojaatnomada mahalla infratuzilmasini rivojlantirish, hududlarni kompleks rivojlantirish hamda aholi hayot sifati va farovonligini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilganligini yoritish hamda Murojaatnomada 2026-yil dasturi "eng muhim 6 ta ustuvor yo'nalish" sifatida aniq nomlanganligini tahlil qilishdan iboratdir.

1-ustuvor yo'nalish: mahalla infratuzilmasi va hududiy natijadorlik

Birinchi yo'nalish mahalla infratuzilmasini yaxshilash, mahallalarga "Yangi O'zbekiston qiyofasini olib kirish"ga qaratilgan. Murojaatnomada mahalla institutining ijtimoiy birdamlikdagi o'rni ham qayd etilib, ijtimoiy so'rovlar natijasi sifatida fuqarolarning katta qismi o'zini mahalla jamoasining bir qismi deb bilishi ta'kidlanadi. Xususan, mahalla infratuzilmasi uchun 2026-yilda katta hajmli mablag'larni viloyatlar ixtiyoriga berish, tejalgan shtat mablag'larini mahalladagi muammolarga yo'naltirish hamda tuman byudjetida qo'shimcha manba shakllantirish mexanizmlari ko'rsatilgan. Kutilayotgan natijalar esa bandlik va kambag'allik bo'yicha aniq maqsadlar keltiriladi: 2026-yilda 1 mln odamni doimiy ish bilan ta'minlash, 181 ming oilani kambag'allikdan chiqarish, kambag'allik va ishsizlik darajasini 4,5% ga tushirish hamda kambag'allikdan xoli mahallalar sonini 3,5 mingtagacha yetkazish belgilab berildi[1].

2-ustuvor yo'nalish: texnologik-innovatsion o'sish modeli

Ikkinchi yo'nalish iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o'sish modeliga o'tkazish sifatida belgilangan. Murojaatnomada 2030-yilgacha YAIMni 240 mlrd dollardan oshirish uchun yuqori qo'shilgan qiymatli sanoat va servislarni kengaytirish zarurligi ta'kidlanadi. Sanoat bo'yicha aniq "marra"lar: kelgusi besh yilda sanoatda qo'shilgan qiymatni 36,5 mlrd dollardan kamida 60 mlrd dollarga yetkazish, yuqori va o'rtadan yuqori texnologiyali tarmoqlar mahsulotini 2,5 barobar oshirish, 2026-yilda 52 mlrd dollarlik 782 loyiha starti va 14 mlrd dollarlik 228 yirik quvvatni ishga tushirish rejalari qayd etiladi. Raqamli iqtisodiyot bo'yicha ham keng ko'lamli paket keltiriladi: startaplarni qo'llab-quvvatlash, fintex ekotizimi, kapital bozori va sun'iy intellekt infratuzilmasi. Xususan, 2026-yilda 4 ta data-markaz, 2 ta superkompyuter va 15 ta OTMda sun'iy intellekt laboratoriyalari ishga tushirilishi, bu esa turli sohalarida 100+ AI loyihalarini amalga oshirishga xizmat qilishi ko'rsatilgan[7].

3-ustuvor yo'nalish: ichki talab, narxlar barqarorligi va bozor to'kinligi

Uchinchi yo'nalish ichki bozorda talabni rag'batlantirishga qaratilgan. Bu yo'nalish makrobarqarorlik, inflyatsiya va iste'mol bozorida "to'kinlik"ni turmush sifati indikator sifatida ko'rish bilan tavsiflanadi. Instrumentlar sifatida oziq-ovqat bozorini barqaror narxda ta'minlash bo'yicha doimiy intervensiya tizimiga o'tish, hududiy oziq-ovqat jamg'armalar resursini 2,5 barobarga oshirib 500 mlrd so'mga yetkazish, 1 mingta mahallada kichik sovitkichli omborlar tashkil etish choralari ko'rsatiladi. Kutilayotgan natija: kelgusi yil inflyatsiyani 6–6,5% gacha tushirish. Mazkur yo'nalish logistika va yo'l infratuzilmasi bilan ham uzviy bog'langan: 2026-yilda ayrim hududlardan o'tgan 300 km yo'l rekonstruksiya yakunlanishi, 800 km yuqori tezlikka mo'ljallangan yo'llar qurilishiga start berilishi, loyihalashda atrof-muhit ta'siri va "to'siqsiz muhit" talablarini qonun darajasida mustahkamlash niyati qayd etilgan[4].

4-ustuvor yo'nalish: kasblar, texnikumlar va yangi mehnat bozori arxitekturasini

To'rtinchi yo'nalish kasblarni rivojlantirish va mehnat bozori arxitekturasini yangilashdan iborat. Murojaatnomada texnologiya va sun'iy intellekt ta'sirida kasblar tarkibi o'zgarayotgani, shu bois ta'lim-kasb-malaka-texnologiyani yagona mexanizm sifatida birlashtirish zarurligi urg'ulanadi. Asosiy instrumentlar: 9-sinf bitiruvchilarini qiziqish va o'zlashtirishiga qarab saralash, texnikumlarni modernizatsiya qilish, "dual ta'lim"ni rag'batlantirish (korxonalarga imtiyozli kredit va soliq imtiyozlari), 2026-yildan texnikumdagi 100 ming o'quvchiga stipendiya to'lash, shuningdek, OTM bitiruvchilarini ish beruvchilar bilan bog'laydigan raqamli ekotizim

yaratish. Bu yo'nalish inson kapitalini "bozor talabiga moslashtirish" va bandlikni barqaror oshirishning institutsional asosini yaratadi.

5-ustuvor yo'nalish: ekologik muvozanat, "yashil" energetika va suv resurslari

Beshinchi yo'nalish ekologik muvozanat, "yashil" energetika va suv resurslaridan oqilona foydalanishga bag'ishlangan. Murojaatnomada yangi "yashil" quvvatlar, emissiyalarni kamaytirish, shahar mikroiklimini yaxshilash, issiqxonalar va transportdan chiqadigan zararli moddalar bo'yicha choralargacha bo'lgan keng spektrli yondashuv ko'rinadi. Energetika bo'yicha: 3,5 ming MVt "yashil" quvvatlar qurilishiga start berilgani, 2026-yilning o'zida 7 mlrd kub metr gaz tejalishi va 11 mln tonna zararli moddalar chiqishining oldi olinishi keltiriladi. Suv bo'yicha: kelgusi uch yil uchun 5,5 mlrd dollarlik dastur, suv tejaydigan texnologiyalar qamrovini 61% (2,6 mln gektar)ga yetkazish, yiliga 2,5 mlrd kub metr suvni tejash kabi ko'rsatkichlar beriladi. Shuningdek, ekologik menejerlar ehtiyoji va "yashil texnikumlar" tashkil etish orqali yiliga 10 ming mutaxassis tayyorlash rejalari ham inson kapitali yo'nalishi bilan integratsiyani kuchaytirishi ta'kidlab o'tildi[5].

6-ustuvor yo'nalish: zamonaviy davlat boshqaruvi va adolatli sud-huquq tizimi

Oltinchi yo'nalish raqamli davlat boshqaruvi va adolatli sud-huquq tizimini rivojlantirishga qaratilgan. Murojaatnomada 2026-yildan Elektron hukumat platformasini tubdan yangilash, 1 mingdan ortiq davlat xizmatlari va minglab funksiyalarni yagona platformaga integratsiya qilish, murojaatlar taqsimoti va muddat nazoratini sun'iy intellekt orqali yuritish, davlat xizmatlarini proaktiv va jamlanma shaklda ko'rsatish, bunday xizmatlar sonini 2026-yilda 100 taga yetkazish kabi aniq vazifalar belgilandi. Shaffoflik nuqtai nazaridan davlat xaridlarida ochiq tizimga o'tish, to'g'ridan-to'g'ri xarid holatlarini faqat qonun bilan belgilash kabi normalar tilga olinadi. Sud-huquq yo'nalishida "raqamli sud" konsepsiyasi, tergovni raqamlashtirish, ayrim bosqichlarda AI texnologiyalarini joriy etish, shuningdek, jamoatchilik ishtirokiga doir institutlarni bosqichma-bosqich tatbiq etish masalalari ko'rsatib o'tildi[6].

Natijalar shuni ko'rsatadiki, Murojaatnomadagi 6 yo'nalish alohida-alohida tashabbuslar to'plami emas, balki bir-birini to'ldiradigan siyosiy arxitektura sifatida tuzilgan: Murojaatnomada "O'zbekiston – 2030" strategiyasini yangi sharoitdan kelib chiqib qayta ko'rib chiqish zarurati ham ko'rsatiladi. Bu holat strategik rejalashtirishni natijalarga qarab yangilashni anglatadi. "O'zbekiston – 2030" yilgacha mo'ljallangan strategiyasi Prezident farmoni bilan tasdiqlangani va uning huquqiy asoslari Lex.uzda berilgani inobatga olinsa, Murojaatnomadagi vazifalar strategiyaning indikatorlar tizimi va yillik davlat dasturlari bilan uyg'unlashtirilishi lozim[7].

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, 2025-yil 26-dekabrda Murojaatnoma 2026-yil uchun davlat siyosatini 6 ustuvor yo'nalishga jamlaydi va ularning barchasi mahallabay natijadorlik, texnologik modernizatsiya, inson kapitali, "yashil" o'sish hamda raqamli-adolatli boshqaruv bloklari orqali o'zaro bog'langan. Amaliy jihatdan eng muhim xulosa: Murojaatnomada ko'rsatilgan raqamli maqsadlar ijrosini ta'minlash uchun indikatorlar (ma'lumot manbasi, metodika, hududiy kesim) standartlashtirilishi va ochiq monitoring tizimi kuchaytirilishi zarur. Shunda ustuvor yo'nalishlar "rejadan natijaga" o'tib, strategik hujjatlar (xususan, "O'zbekiston – 2030") bilan uyg'un ijro etiladi[8].

Xulosa qilib aytganda, Prezident Murojaatnomasida ilgari surilgan tashabbus va vazifalar xalq farovonligini oshirish, yurt va mahallalarda tinch-osoyshta hayotni ta'minlash hamda Yangi O'zbekistonni rivojlanishdan yuksalish sari olib chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi (26.12.2025). [O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi](#)

2. Anhor.uz. "Murojaatnoma lingvistikasi: Prezident nutqida qaysi mavzular ustun bo'ldi?" (26.12.2025). [Prezident nutqida qaysi mavzular ustun bo'ldi?](#)

3. Lex.uz. PF-158-son (11.09.2023): "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida. [PF-158. 11.09.2023. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida](#)

4. Gov.uz. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi sahifasi va unga doir davlat dasturi konteksti. ["O'zbekiston — 2030" strategiyasi](#)

5. **Bahrom Sobirov, Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashining deputati, "Issiqlik elektr stansiyalari" AJ Sirdaryo IES filiali direktori.** [Prezident murojaatnomasi – rivojlanishdan yuksalish sari](#)

6. [Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va xalqqa yo'llagan Murojaatnomasi urdu tilida nashr etildi](#)

7. [Murojaatnoma: mazmun va mohiyat](#)

8. [Mirziyoyev Oliy Majlis va xalqqa murojaatnoma bilan chiqadi](#)